



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб


Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Boxodirov Ixtiyor TURKISTON HARBIY OKRUGINING ILI O‘LKASIDA ROSSIYA IMPERIYASI HUKMRONLIGINI O‘RNATISHGA QARATILGAN FAOLIYATI.....	5
2. Bo‘tayev Jonibek XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TIBBIY XIZMAT HOLATI.....	10
3. Djumamurotov G‘ulom XVIII ASRNING IKKINCHI YARMI VA XIX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLARNING OROL BO‘YIGA KO‘CHIB JOYLASHISHI.....	16
4. Ergasheva Xusnida NEFT SANOATINING MODDIY-TEXNIK BAZASI VA INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISH.....	27
5. Кобзева О.П. СКАНДИНАВСКИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛИ ШЕЛКОВОГО ПУТИ.....	34
6. Rahmatov Muhridin TATAR ZIYOLILARINING TURKISTON TA‘LIM TIZIMINI YO‘LGA QO‘YILISHIDAGI ISHTIROKI VA UNING NATIJALARI.....	40
7. Ruzikulova Maftunaxon MARKAZIY FARG‘ONA SUV XO‘JALIGINING MOLIYAVIY TA‘MINOTI VA UNDAGI MUAMMOLAR (1950-1991-yillar).....	46
8. Саттаров Акрам XIX АСР ЎРТАЛАРИДА ТУРКИСТОНДАГИ ДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТ.....	52
9. Tishabayev Alisher O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MALAKALI SPORTCHI MUTAXASSIS KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR (1991-2019-yillar).....	58
10. Toliboyeva N.O. O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA‘RIFIY SOHANING YUKSALISHI.....	66
11. Хайдаров Муродилла ФРЕДЕРИК СТАРР. МАРКАЗИЙ ОСИЁНИ ҚАЙТА КАШФ ЭТИБ.....	71
12. Baxtiyor Yuldashev, Xusnida Ergasheva SOVET DAVLATI HUKMRONLIGI YILLARIDA O‘LKADA NEFT SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR CHORA-TADBIRLAR.....	81



G'ulom Masharipovich Djumamurotov,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
O'zbekiston tarixi kafedrasida o'qituvchisi

XVIII ASRNING IKKINCHI YARMI VA XIX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLARNING OROL BO'YIGA KO'CHIB JOYLASHISHI

For citation: Gulam M.Djumamurotov. THE RELOCATION OF KARAKALPAKS TO THE ARAL SEA REGION IN THE SECOND HALF OF THE 18TH AND AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 4, pp.16-26

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15380648>

ANNOTATSIYA

Maqolada tadqiq etilganidek, qoraqalpoqlarning aksariyat qismi XVII-XVIII asrning o'rtalarida Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida yashagan. XVIII asrning o'rtalarida siyosiy voqealar, ya'ni qozoq xoni Abulxayrxon qoraqalpoq yerlariga hujum qilishi oqibatida ular Sirdaryo deltasidagi g'arbiy tarmog'i – Janadaryo bo'ylariga ko'chib o'tdilar va Amudaryoning quyi oqimida yashovchi qoraqalpoqlar Orol o'zbeklari bilan birlashib, markazi dastlab Qo'ng'iro't, so'ngra Shohtemir (hozirgi Chimboy) bo'lgan davlat (Orol mulkini) tuzdilar. Qoraqalpoklar asosan, chorvachilik, dehqonchilik va baliq ovlash bilan shug'ullanganlar. 1811-yilda qoraqalpoqlar Xiva xonligiga tobe bo'ldi. 1873-yilda rus podsho qo'shinlarining Xivaga qilgan yurishidan so'ng va Gandimiyon shartnomasi tuzilgach, Amudaryoning o'ng sohilidagi qoraqalpoqlar yashaydigan hudud Rossiyaga qo'shib olingan va bu yerda Turkiston general-gubernatorligining Sirdaryo viloyati Amudaryo bo'limi tashkil etilgan.

Shuningdek, maqolada XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asr boshlarida qoraqalpoqlarning orol bo'yiga ko'chib joylashishining ahamiyati va mohiyati ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: qoraqalpoqlar, XVIII asr, XIX asr, Amudaryo havzasi, Orol, qozoqlar, turkmanlar, Xiva xonligi, Quyi Amudaryo, siyosiy va iqtisodiy aloqalar.

Гулам Машарипович Джумамуротов,
Преподаватель кафедры истории Узбекистана,
Узбекский государственный университет мировых языков

ПЕРЕСЕЛЕНИЕ КАРАКАЛПАКОВ В ПРИАРАЛЬЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XVIII И В НАЧАЛЕ XIX ВЕКА

АННОТАЦИЯ

В статье исследуется, что исторически каракалпаки проживали вдоль Урала, затем на Волге, вокруг Аральского моря и в предгорьях нижнего течения реки Сырдарья, и что их миграция во многом была обусловлена внешними факторами. Наконец, в начале XIX века они начали расселяться в нижнем течении Амударьи, на юге и юго-западе Аральского моря.

Каракалпаки подверглись нападению казахов и туркмен, в результате чего стали подданными Хивинского ханства. Благодаря своему упорному труду они покорили обширные пустыни и солончаки нижнего течения реки Амударья. Когда каракалпаки начали оседать, земледелие стало важной частью их жизни. Тем не менее, скотоводство оставалось одной из ведущих отраслей жизни каракалпаков. В середине XIX века каракалпаки находились под властью Хивинского ханства, проживая по обоим берегам Амударьи и в районах ее впадения в Аральское море. Их численность в то время не превышала примерно 100.000 человек. Земли, предоставленные каракалпакам, считались собственностью ханства, и они платили за эти земли налоги, а также выполняли различные обязательства.

В статье также научно анализируются значение и суть политических и экономических связей каракалпаков со среднеазиатскими ханствами и Россией в XVIII – начале XIX вв.

Ключевые слова: каракалпаки, XVIII в., XIX в., бассейн Амударьи, Арал, казахи, туркмены, Хивинское ханство, низовья Амударьи, политические и экономические отношения.

Gulam M. Djumamurotov,

Teacher of the Department of History of Uzbekistan,
Uzbekistan State World Languages University

THE RELOCATION OF KARAKALPAKS TO THE ARAL SEA REGION IN THE SECOND HALF OF THE 18TH AND AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY

ABSTRACT

The article explores that historically the Karakalpaks lived along the Urals, then on the Volga, around the Aral Sea and in the foothills of the lower reaches of the Syr Darya River, and that their migration was largely determined by external factors. Finally, in the early 19th century, they began to settle in the lower reaches of the Amu Darya, in the south and southwest of the Aral Sea. The Karakalpaks were attacked by the Kazakhs and Turkmens, as a result of which they became subjects of the Khiva Khanate. Through their hard work, they conquered the vast deserts and salt marshes of the lower reaches of the Amu Darya River. When the Karakalpaks began to settle, agriculture became an important part of their lives. However, cattle breeding remained one of the leading industries of the Karakalpaks' life. In the mid-19th century, the Karakalpaks were under the rule of the Khiva Khanate, living on both banks of the Amu Darya and in the areas where it flows into the Aral Sea. Their number at that time did not exceed approximately 100.000 people. The lands granted to the Karakalpaks were considered the property of the khanate, and they paid taxes for these lands and fulfilled various obligations.

The article also scientifically analyzes the significance and essence of the political and economic ties of the Karakalpaks with the Central Asian khanates and Russia in the 18th – early 19th centuries.

Index Terms: Karakalpaks, 18th century, 19th century, Amu Darya basin, Aral, Kazakhs, Turkmens, Khiva Khanate, taxes, political and economic relations.

1. Dolzarbligi:

Qoraqalpoqlar – Markaziy Osiyodagi turkiy xalq bo'ib, qipchoq hududlaridan ruslar tomonidan siqib chiqarilgach, Janubiy Rossiyadan Janubiy Orol bo'yigacha bo'lgan hududlarda yashagan. Janubiy Orol bo'yida IX-XI asrlarda xalq sifatida shakllangan. Qoraqalpoqlarning aksariyat qismi XVII–XVIII asrning o'rtalarida Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida yashagan. XVIII asrning o'rgalarida siyosiy voqealar, ya'ni qozoq xoni Abulxayrxon qoraqalpoq yerlariga hujum qilishi oqibatida ular Sirdaryo deltasidagi g'arbiy tarmog'i — Janadaryo bo'ylariga ko'chib o'tdilar va Amudaryoning quyi oqimida yashovchi qoraqalpoqlar orol o'zbeklari bilan birlashib, markazi dastlab Qo'ng'iro't, so'ngra Shohtemir (hozirgi Chimboy) bo'lgan davlat (Orol mulkini) tuzdilar. Qoraqalpoqlar asosan, chorvachilik, dehqonchilik va baliq ovlash bilan shug'ullanganlar.

Mavzuning o'rganilishi XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX ASR boshlarida qoraqalpoqlarning orol bo'yiga ko'chib joylashishi tarixini yanada ilmiy **xulosalar bilan boyitishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.**

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

1. Maqolada umumqabul qilingan ilmiylik, xolislik, tarixiylik tamoyillari asosida XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asr boshlarida qoraqalpoqlarning orol bo'yiga ko'chib joylashishi **tarixi ilmiy tahlil etilgan. Mavzu S.Kamolov, S.Tolstov, M.Vyatkin, Sh.Ivanov, B.Andrianov, N.Appolova, S.Bakishlov kabi tarixchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.**

3.Tadqiqot natijalari:

Qoraqalpoqlarning Yangidaryo bo'yiga ko'chishi XVIII asr boshlarida boshlangan. Ma'lumki, qoraqalpoqlarning aksariyat qismi XVII-XVIII asrning o'rtalarida Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida yashagan. XVIII asrning o'rtalarida siyosiy voqealar, ya'ni qozoq xoni Abulxayrxon qoraqalpoq yerlariga hujum qilishi oqibatida ular Sirdaryo deltasidagi g'arbiy tarmog'i – Janadaryo bo'ylariga ko'chib o'tdilar va Amudaryoning quyi oqimida yashovchi qoraqalpoqlar Orol o'zbeklari bilan birlashib, markazi dastlab Qo'ng'iro't, so'ngra Shohtemir (hozirgi Chimboy) bo'lgan davlat (Orol mulkini) tuzdilar. 1746-1747-yillarda ularga O'rta juz Sulton Ablay hujumi natijasida qozoq xonlarining va sultonlarining siquvi ostida quyi qoraqalpoqlar yuqoriga ko'chishga majbur bo'lishdi. Qoraqalpoqlarning asosiy katta qismi janubiy-g'arbga, Xiva xonligi chegarasi yaqiniga Amudaryo sharqiga, Quvondaryo va Yangi daryo o'rtasiga ko'chib o'ta boshlashdi. 1750-yilda Sirdaryo bo'yida bor yo'g'i 6 ming atrofida xonadon qolgan edi. Ular xondaryo Qoraqalpoqlari bilan qozoq xonlariga qarshi 1762-yilga qadar kurash olib boradilar. 1748-yilda Sulton Botir tarafdorlari bilan birgalikda O'rta juz sultoni Barak Abulxayrxon ustidan g'alabaga erishib o'zini o'ldiradi. Uning o'g'li Nurali xon bo'ladi. Uni chor xukumati qo'llab quvatlagan edi. Lekin Nuralini xon deb Kichik juzning urug'i xonlikka Sulton Botirni taklif qiladi[1].

Shunday qilib, Kichik juz ikkiga bo'linib ketadi. Abdulxayrxonning ikkinchi o'g'li Erali sulton ko'chmanchilarga boshchilik qilgan holda akasining hokimiyatini tan olmay mustaqil edi. Kichik juz xonligida yuz berayotgan bu voqealar ular bilan qo'shnichilikda bo'lgan qoraqalpoqlarning keyingi davriga ta'sir qilmay qolmadi. Sulton Botir bilan Sulton Erali Nuralixonidan ajralgan holda Rossiya fuqaroligini tan olmasdan rus va boshqa karvonlarni talashardi, tez tez qo'shni davlatlar xalqlariga qarshi hujum qilib turishardi[2]. Sulton Botirxon bilan Eralixon hukmronlik qilgan yerlar albatta qoraqalpoqlar bilan chegaradosh edi. Sirdaryo va Yangidaryo bo'yida yashovchi qoraqalpoqlar qozoq feodallarining hujumi ostida qoldi. 1750-yil fevralida Kichik juzdan Aychuvak sulton va Utetnavtaxon O'rta juzdan Jonibek tarxon bilan birlashib, 3 mingta qo'shin bilan qoraqalpoqlar hamda Sirdaryo bo'yida yashovchi ko'chmanchi orolliklarga qarshi, keyinchalik Xivaga qarshi yurishga o'tlanishadi. Orolliklar bilan birlashgan holda qoraqalpoqlar ularga qattiq zarba berishdi. Bosqinchilar juda og'ir mashaqqat bilan o'z O'rdasiga qaytishdi. Bu haqda xabar Sulton Eraliga yetishi bilan 130 otliq bilan qoraqalpoqlar bilan orolliklarga qarshi o'tlandi.

Lekin uning qo'shini tor-mor keltirildi, ko'pchiligi asir olindi. Yana o'sha yili qoraqalpoqlarga va orolliklarga qarshi yurishga o'tlangan qozoqlarning arg'in qipchoq urug'i juda katta talofatlar berib, hatto o'z hukmdori Sarqonni yo'qotib qaytishdi[3]. Qozoqlarda yer yaylovlar yetishmasligi natijasida qoraqalpoqlar bilan to'qnashuv XYIII asrning 60-yillarida keskin tus oladi. Bu haqida rus elchisi bunday deb yozadi. Quyi yoyiq qozoqlari shu darajada zich joylashganki hatto bir o'tovdagilar ikkinchi o'tovdagilar bilan bemalol gaplashib o'tirishadi[4]. Yana o'sha yili kichik juz qozoqlari Sulton Erali boshchiligida qoraqalpoqlarga hujum qilishdi. Ayrim rus manbalarida bu yurishda 20 ming qozoq qo'shinlari qatnashganliklarini to'g'risida gap boradi. Sulton Eraliga O'rta juz qozoqlari ham yordam berib qo'llab quvvatlaydi. Ular Sirdaryo bo'yida yashovchi qozoqlarni raxmsizlarcha qirg'in qilishgan. Ularni Orol bo'yiga va Amudaryo bo'yiga kuchib o'tishga majbur qilishadi. Sirdaryo bo'yi qoraqalpoqlarining axvoli chidab bo'lmas darajada edi. 1760-yilda ular o'z yerlarini butunlay yashlab ketishdi. 1762-yilning qishida qozoqlarning O'rta va Kichik juz

o'rtasidan bir bo'limi Sirdaryo bo'yiga qoraqalpoqlar tomonidan tashlab ketilgan yerga ko'chib o'tishdi.

Yangidaryo bo'yiga ko'chib o'tgan qoraqalpoqlarning ahvoli juda og'ir edi. Qozoq xonlari va sultonlari hujumidan har doim o'zlarini himoya qilib urush olib borishi natijasida, undan tashqari va yillardan beri tashlab qo'yilgan yangi dashtlarni o'zgartirib ekin maydonlariga aylantirish, yangi yerlarni o'zlashtirish, kanallar qazish, sug'orish inshootlarini ko'rish talab qilinadi. Ayrim tarixchilar qoraqalpoqlarning XYIII asr oxirida Yangidaryo bo'yini butunlay o'zlashtirib olganligiga shubha bilan qaraydi. Ba'zi bir qozoq afsonalariga asoslanib bu juda uzoq vaqt davom etgan jarayonda sodir bo'lgan degan fikrlarni aytishadi. Ularning fikricha qoraqalpoqlar Yangidaryo bo'yicha XYIII asr boshlarida ko'chib kela boshlagan. Xiva xoni xronikasida 1715-yilda Yangidaryo bo'yida qoraqalpoqlar yashaganligi to'g'risida ma'lumotlar beradi[5]. Lekin shuni tan olish kerakki qoraqalpoqlar qisqa vaqtda bo'lsa ham Yangidaryo va Orol bo'yida qozoq sulton va xonlari hamda xiva xonining siquvidan ozod bo'lgan. Shuning uchun ham xo'jalik ishlarini qisqa vaqt ichida rivojlantirishga muvaffaq bo'lishgan.

Yangi daryo bo'yida qoraqalpoqlar Orol o'zbeklari bilan birga ko'chib o'tishdi. Qozoq xonlarining qoraqalpoqlarga hujum qilishidan maqsadlari faqat talanchilik bilan o'lja olish emas, balki o'zlariga bo'sundirish edi. Qoraqalpoqlarning Orolliklar bilan qadimdan yaqin aloqada bo'lishgan. Qoraqalpoqlar Orolliklar bilan ittifoqda 1740-yildan XIX asr boshlarigacha Qozoq sultonlaridan va Xiva xonligidan ham mustaqil yashaganlar. Qoraqalpoqlar XYIII asrdan XIX asr boshlarigacha Quvondaryo va yangidaryodan Amudaryo pastki quyilishigacha hududni egallaganlar. Ayniqsa Quvondaryo bilan Amudaryo O'rtasida xalq juda zich joylashgan. S.P.Tolstoyning ma'lumot berishicha qoraqalpoqlarning zich yashaganlari to'g'risida turar joylar, sug'orish inshootlari, ekinzorlar madaniy qatlamlardan dalolat beradi. Qoraqalpoqlarning madaniy markazi Amudaryo bo'yida bo'lgan. Lekin o'sha davrlarda qoraqalpoqlarda yagona davlat bo'lib birlashganligi to'g'risida ma'lumotlar yo'q. Har bir qabilani o'zining bo'ylari boshlagan. Masalan, Xiva xonligida qoraqalpoqlarning bir necha qabilasi bilan Aris urug'i hamda o'n to'rt urug'ni boshqargan. Lekin bu birlashishda Aris, Qo'ng'iro't, Yesengeldi biy, Tuxtapulat biylar bo'lgan. Xorazm ekspeditsiyasi tomonidan qurib qolgan Yangidaryo o'rnidan sug'orish inshootlari qolqidlari topilgan[6].

Shu bilan birga Orubay qal'a qolqidlari ham topilgan, bu qal'a qalin devorlar bilan o'ralgan katta hovli chiroyli naqshlar bilan bezalgan hamda namat, hovli atrofi katta bog' yana juda ko'p chorva mollari sig'adigan molxonasi bo'lgan. Qal'ada yashagan boy katta yer egalari va hamda chorva egasi ham bo'lgan. Xiva xronikasi ma'lumotlariga qaraganda qabilalar ichida imom, eshon, xojilar hamda shayxlar katta yer egasi hamda chorva egasi bo'lishgan. Har doim bosqinchilar hujumidan saqlanish uchun butun qarindosh urug'lar birga yashashgan. Har bir ovulning paxsa bilan o'ralgan bir qo'rg'oni bo'lgan. Kuz va qish fasllarida butun qishloq qo'rg'on ichida yashagan. Lekin bosqinchilar hujumi ham ko'pincha kuz va qish fasllarida ro'y bergan. Masalan, O'rinboy biy qo'rg'onini oladigan bo'lsak, Vohaning markazida joylashgan bosqinchilar hujumi vaqtida qo'rg'onida uning butun urug' aymog'lari ularning chorva mollari bilan joylashgan va ko'chmanchilar hujumidan saqlaganalar.

XYIII asr ichida Xiva xonligida yuz bergan siyosiy voqealarda qoraqalpoqlar ham muhim ro'l o'ynagan. Oldin aytib o'tganimizdek, Orol O'zbeklari bilan birgalikda bir necha marta Xiva xonligiga qarshi kurashgan. Orol o'zbeklarining markazi Qo'ng'iro't va Shaytemir bo'lgan va keyin markazi Chimboy shahri yaqinida bo'lgan. Orol o'zbeklari qipchoq, mang'it, keneges, qo'ng'iro't urug'laridan tarkib topgan bo'lib, ularning etnik kelib chiqishi bilan janubiy Xorazm o'zbeklaridan ajralib turgan.

Ular har vaqt Xiva xonligiga qarshi bo'lishgan. Ular ko'p martalab o'zlariga o'zbek zodagonlaridan yoki qoraqalpoq zodagonlaridan xon ko'tarib, osha xon boshchiligida Xiva xonligiga qarshi kurash olib borgan. 1714-yilda Orol o'zbeklari qoraqalpoqlardan taklif qilingan. Eshim Muhammadga qasamyod qilib Xiva xoni Yodgor xonga qarshi uch marta qo'shin yuboradi, ikki marta qo'shinda o'zi ham qatnashadi. Lekin orolliklarni Xivaga bo'sindirishga erisha olmadi. Orolliklarning ittifoqchisi bo'lgan qoraqalpoqlarni tor mol qilmay turib, orolliklarni bo'sundirib

bo'lmashligini Xiva xonlari yaxshi tushinishardi. Yodgorxon o'limidan keyin Sheroziy xon (1715-1728) 1715-yilda qoraqalpoqlarni bo'ysundirishga birinchi bor qo'shin tortib boradi. Lekin u ham qoraqalpoqlarni bo'ysundirishga muvaffaq bo'lmaydi. Qoraqalpoqlar o'z yerlarini, mulklarini, chorva mollarini tashlab ilgari yaratgan Yangidaryo bo'yiga ko'chishdi. Qoraqalpoqlar kechinishidan keyin Xiva xoniga orolliklarga zarba berish ularni tormor qilishga muvaffaq bo'ldi. Orolliklar xoni Shox Temir Lashkarboshisi Sherali biy xivaliklar qo'shinidan yengilib qolgan qo'shinlari bilan Amudaryodan o'tib qoraqalpoqlar eliga jo'nab ketadi. Ak yaqinida turgan orolliklar xoni Shox Temur ham Xiva qo'shiniga qarshilik ko'rsata olmadi. Sherali biy orqasida qoraqalpoqlar yurtiga jo'nadi[7].

Bir necha yillardan keyin Xivada Elbarxon hukmronlik qilgan davrda (1728-1740) Orolliklar bilan qoraqalpoqlar yana birgalikda qo'zg'olon ko'tarib, xivaliklarni tor-mor keltiradi. Bugundan keyin Elbarsxon yana orolliklar va qoraqalpoqlarga qarshi qo'shin tortib boradi. Bu jangda orolliklar xoni Shox Temur o'ldiriladi. Bu jangda 3 marta orolliklar va Qoraqalpoqlar chopib tashlangan[8].

Xiva xonligining unchalik aniq bo'lmagan ma'lumotlarga qaraganda, orol bo'yida yashagan qoraqalpoqni bo'ysindirishning birinchi bosqichida shu bilan yakunlanadi. Lekin keyinchalik Xivaning zaiflashganidan foydalanib qoraqalpoqlar va orollilar yana mustaqil bo'lib olishadi. XYIII asrning o'rtalarida Xivada siyosiy holat birdaniga o'zgaradi. O'zbek feodallari bilan turkman feodallari o'rtasidagi uzluksiz urushlar, feodallar tarqoqlikning chuqurlashuvi Xiva xonligidagi inqiroz Buxoro amirliklarining Xiva xonligini inqirozga olib keladi. Ayniqsa, ishlariga aralashuvi hamda qozoq, qalmiqlarning hujumi natijasida kuchaydi. Nodirshox bosqini (1740-y) vaqtida judayam zaiflashib qolgan edi. Fors qo'shinlari tomonidan chorva mollarining hamda erkak aholining haydab ketilishi Xiva xonligida iqtisodni butunlay zaiflashtirdi.

Fors qo'shinlari ketishi bilan hududida yirik o'zbek qabilalari boshliqlari o'rtasida o'zaro kurash boshlandi. XYIII asrning 60-yillarida boshlangan taxt uchun bu kurashda yirik turkman qabilalaridan bo'lgan yovmud qabilasi ham qo'shiladi. O'zaro urushlar aholini o'z uylari va erkin maydonlarini tashlab ketishiga majbur etdi. Ocharchilik boshlandi. Bu davrda Xiva xonligini yirik qabila boshliqlaridan qo'ng'irot inoqlari boshqargan inoqlarni xon ko'tarib ular nomidan davlatni boshqargan, farmonlar chiqargan. Qoraqalpoqlarning Yangidaryodan o'tib, Xorazmga ko'chib kelib joylashishi Xiva xonligida yuz berayotgan voqealar bilan bir vaqtga to'g'ri keldi. Xorazm shimoliga o'tib joylashgan qoraqalpoqlar Xivada yuz berayotgan voqealarda katta ro'l o'ynay boshlaydi. XYIII asrning 60-yillarida yovmudlar zulmiga ko'tarilishadi. Bu kurashga orolliklarning qo'ng'irot urug'i boshlig'i Muhammad Emin inoq (1770-1790) rahbarlik qiladi. U yovmudlarga qarshi kurashda g'alaba qozonib, davlatni o'z qo'lga oladi va tez uni markazlashtirishga kirishadi. Muhammad Emin inoqning turkman qabilalari yovmud va choudirlarga qarshi 1768-1769-yillarda olib borgan kurashida qashshoqlarning uchta yirik qabilalari qatnashishgan.

Bulardan Xitoy qabilasi Qurbonboy biy boshchiligida keneges qabilasi Aman Quzi biy boshchiligida, qo'ng'irot qabilasi Esengeldi biy boshchiligida hamda Goyib Bahodir besh yuzta odam bilan qatnashadi[9].

Muhammad hukmronlik qilgan davrlarda qoraqalpoqlarni bo'ysindirishning ikkinchi davri boshlandi. Bu davr qoraqalpoqlarning bir necha qabilalarning Xiva xonligiga o'tib qabila boshliqlarining xonlikda o'z mavqeini mustahkanlashga harakat qilganligi bilan xarakterlanadi. Muhammad Emin inoq hamda uning o'g'li Avaz inoq (1790-1804) hukmdorlik qilgan davrlarda Chingizxon urug'idan bo'lgan qoraqalpoqlardan soxta xonlar taxtga o'tirgan. Bulardan Ortiqg'ozixon, Yodgorxon, Abdulg'ozixon, to'rtinchi, Abdulg'ozixon beshinchi. Bu xonlar biron-bir hokimiyatga ega bo'lmashlarda, bularning soxta xon bo'lib o'tirishi qoraqalpoqlarning Xiva xonligi fuqaroligiga o'tishini osonlashtirgan. Muhammad Emin inoq Xiva fuqaroligiga qoraqalpoqlarning qoldaul urug'ining biyi Aydo'sbiy o'z urug'i bilan qabul qilgan. Ularga Amudaryoda Orol dengizigacha bo'lgan hududga ko'chib o'tishga ruxsat berilgan. Keyinchalik aris qo'ng'irot urug'i bilan, urug' biyi Esengeldi biy o'z urug'i bilan Xiva fuqaroligiga o'tganlar[10].

Turkmanlar bilan bo'lgan janglardan keyin Muhammad Emin inoq uni butunlay o'z xizmatiga oladi. Ma'lumotlarga qaraganda, Aydo'sbiy Xivaga sodiq xizmat qila boshlagan.

Keyinroq Esengeldi biy Xivaga sodiq xizmat qilishda Aydo'sbiy bilan xuddi musobaqalashganday xizmat qilib keyinchalik xonning eng yaqin odami bo'lib olgan. Aydo'sbiy Xivaga xizmat qila boshlaganida oldiniga o'z urug'iga biy lavozimini egallagan. Keyinchalik Muhammad Emin inoqning qo'llab-quvvatlashi tufayli butun qoraqalpoq ulusiga hokim bo'lgan. O'sha vaqtdan balki undan ham oldinroq Aydo'sbiy o'z xalqiga nisbatan xoinlik qila boshlagan. U qoraqalpoqlarni bir biriga dushman bilgan ikki guruhga bo'lib yuboradi. Qoraqalpoqlarning asosiy guruhi ularning ichida ko'pchilikni tashkil etgan aria o'n to'rt urug'i Yangidaryo o'z xalqining mustaqilligi uchun kurash olib borardi. Ikkinchi guruh urug' boshlig'i Aydo'sbiy boshchiligida Xiva tomonida turib bo'ysunmagan qoraqalpoqlarga qarshi kurash boshlaydi. Aydo'sbiy biyning ikkita ukalari Mirjik, Begin ikkalovi qayshi kurashdi. Shuni eslatib o'tamizki, o'sha vaqtda Orol o'zbeklarining qo'ng'iroq urug'ining boshlig'i bo'lgan To'ramurod so'fi Orol o'zbeklari va qoraqalpoqlar tomonidan Qo'ng'irotda xon bo'lib ko'tarilib, o'z xonligining mustaqilligi uchun Xivaga qarshi kurash olib borardi.

Aydo'sbiyning Xivaga qilgan xizmatlaridan biri shu bo'ldiki, Xiva xoni unga ukalaringi o'ldirsang butun qoraqalpoq xalqining xoni qilib ko'tarishini va'da qildi. Munis Ogahiy ma'lumotiga qaraganda 1810-yil iyunida bo'lgan jangda Aydo'sbiyning ukalari Begis va Mijiq asir tushadi. Aydo'sbiy ularni o'ldirib, Xivaga xon huzuriga yo'l oladi. Albatta u xizmatiga yarasha taqdirlangan. Qoraqalpoqlar bu aka ukalarni o'z xalqining ozodligi uchun kurashgan qahramonlar sifatida eslashadi. Aydo'sbiy esa o'z ukalarini o'ldirgani uchun la'natlaydi[11].

Eltuzar Muhammad (1804-1806) soxta xonlikni tugatib o'zi xonlikni mustaqil boshqara boshlaydi va Xiva xonligida yangi qo'ng'iroqlar sulolasiga asos soldi. Eltuzarxon davrida hali bo'ysinmagan qoraqalpoqlarni bo'ysindirish uchun yana kurash boshlaydi. 1803-yilning aprel va may oylarida Eltuzarxon Ak yaqinida Tangriyor kanalining boshlarida va Yartiqun atrofida yashovchi qoraqalpoqlarning xitoy urug'iga hujim qiladi. Katta jangdan keyin xon qo'shinlari bu urug'ning chorva mollarini o'lja qilib hamda ayol va bolalarni asirga olib qaytishadi. O'ljaning beshdan bir qismi xon xazinasidan tushib qolganidek qo'shnilar o'rtasida taqsimlangan. Muhammad Niyozbekning ulushi 200 tilla bo'lgan.

Eltuzarxon bosqinidan keyin xitoy qabila urug'i boshliqlari bir oydan keyin ko'p sovg'alar bilan xon saroyiga kelishdi va xonlikka bo'ysunganlarini bildirdilar[12].

Xiva xoni bo'ysinmagan qoraqalpoq urug'lariga qarshi kurashda o'ziga sodiq bo'lgan qoraqalpoq biylaridan ustalik bilan foydalanishdi. Masalan, 1805-yilda qo'ng'iroq urug'i boshliqlaridan birinchi o'g'li mulla Yesengeldi va qanjigali boshliqlari Ak yaqinida Buxoro amirligiga qarashli bo'lgan hujum qiladi. Ular juda katta o'ljalari va ko'p asirlar bilan qaytishadi. Albatta bunaqa xizmatlar uchun ular Xiva xoni tomonidan taqdirlanmasdan qolmas edi. Bu yurishdan keyin Xiva xoni ularga ko'p inomlar qilgan hamda Xiva xonligida yaxshi lavozimlar bergan. 1806-1825-yillar Xiva asrdagi Xiva taxtini Muhammad Raximxon egalladi. U XIX asrdagi Xiva xonlaridan eng kuchli xonlarining bittasi bo'lgan. U ham Xiva xonligining markazlashtirishdan iborat bo'lgan Muhammad Emin inoq siyosatini davom ettirdi. Orol o'zlarining hukmdori To'ramurod so'fi boshchiligida Xiva xonini tan olmasdan qattiq qarshilik ko'rsatardi. 1806-yili Muhammad Raximxon bari biri To'ramurod so'fini Qo'ng'irotdan siqib chiqarishga muvaffaq bo'ldi.

Lekin Yangidaryo qoraqalpoqlari va Buhoro amiri yordami bilan To'ramurod so'fi kurashni davom ettiradi. Uni turkmanlar ham qo'llab-quvvatlardi. Muhammad Rahimxonning qoraqalpoqlarga nisbatan olib borgan siyosati bir tomondan o'sha vaqtdagi Xiva xonligi hududida yashayotgan qoraqalpoqlarni Orol o'zbeklari bilan birga butunlay bo'sundirish, ikkinchi tomondan Yangidaryo bo'yida yashayotgan qoraqalpoqlarning ikkinchi guruhi ham o'ziga bo'ysundirish edi. 1807-yilning oktyabrda Muhammad Rahimxon Yangidaryo qoraqalpoqlariga qarshi amir Qutlug'murodinoq boshchiligida qo'shin yuboradi. U chortoqli Yangidaryo qirg'og'ida yashayotgan qoraqalpoqlarning xitoy urug'iga hujum qiladi. Ko'pchilik qirib tashlanadi, va juda katta o'lja olinadi. Lekin bu safar ham Xiva xoni Yangidaro qoraqalpoqlarini bo'ysundira olmaydi, chunki O'rinboy biy boshchiligidagi 5000 o'tov ya'ni oila Buhoro fuqaroligini qabul qilishadi. 1809 yilning yanvarida Muhammad Rahimxon yangidan Amudaryo quyida yashayotgan qoraqalpoqlarga qarshi yurish

qiladi. Xonning xordiq chiqarishi uchun to'xtagan paytida Kulyargan kanali bo'yida to'xtagan uning huzuriga Makatbiy 1000 ta o'tov kelib ya'ni oiladan iborat bo'lgan urug'i bilan kelib Xiva fuqaroligiga qabul qilishini so'rab iltimos qiladi. Xon ularning iltimosini qabul etdi va Xo'jaliga ko'chib borib joylashishga ruxsat berdi.

Yashash urug'i boshlig'i qulayotgan kanalning chang qirg'og'ida yashovchi To'ramurod so'fi fuqaroligida turgan Xiva xoniga bo'ysunishdan bosh tortadi. Lekin katta qo'shin bilan xon hujum qilib uni taslim bo'lishigacha majbur qiladi. Bu yurishda xon qo'shinlari bilan qoraqalpoq biylaridan Aydos, Qodirbergan, Qaimbergan o'z qo'shinlari bilan qatnashgan. O'sha yili Muhammad Rahimxon Qozoqdaryo bilan Orol dengizi ortida yashovchi Aymurzabiy boshliq qoldigul urug'i o'ziga bo'ysundirishadi. Turkman lashkarboshilarini va qoraqalpoq urug' oqsoqol va boshliqlarini o'z tomoniga og'dirib olgan xon o'z davlatiga bo'ysunmagan xalqlarni talay boshladi. Yurishlarni hammasiga o'zi faqat zarur bo'lgandagina qatnashgan. Qolgan paytlarda lashkarboshilari qatnashgan. Muhammad Rahimxon qoraqalpoqlar o'rtasida Aydos biyning xonligining mustahkamlash uchun XIX asrning 10-yillarida Ak yaqin atrofida qal'a qurishga ruxsat beradi. Yerlik aholini yig'ib qal'a qurib tugatgandan keyin Xiva xoni unga qal'ani qo'riqlash uchun xonlikdan qo'shin ham yuboradi. Bu qal'a keyinchalik yeri Ardos qal'a nomini oldi. Qal'aning joylashgan yeri Xorazmdan chiqqan karvon yo'lining Yangidaryo ketishida Qorauzak kanalining yo'lini kesib o'tgan yerida joylashgan. Harbiy tomondan qulay bo'lgan qal'adan Xiva xoni Orollarga hamda Yangidaryo qoraqalpoqlariga qarshi kurashda foydalangan. 1810-yilning yanvarida Muhammad Rahimxon Qutlug' Muhammad inoqning o'g'li Muhammadxon bek boshchiligida Orolliklarga qo'shni bo'lgan qoraqalpoqlarga qarshi kurash yubordi.

Ak yaqinidan chiqqan qoraqalpoqlardan iborat qo'shin ham yurishda qatnashdi. Lekin bu safar ham yurish asir olish va tinch aholining tanlash bilan tugagan. O'sha yilning iyun oyida Aydosbiy buyrug'iga binoan Aymurzabiy Berdi lashkarboshi to'rt yuzta otliq qo'shin bilan Qo'ng'iro't atrofida yashovchi qoraqalpoqlarni talab ko'p asirlar olib qaytishadi. Bu asirlar orasida Aydosbiyning ukasi Bekin ham bor edi. U Xiva xoniga qarshi Qo'ng'iro't xoni To'ramurod so'fi xizmatida edi. Aydosbiy uni qatl qilgan. 1810-yilning iyulida Xiva xoni yangidan Amudaryoning chap qirg'og'ida yashovchi qoraqalpoqlarga qarshi yurish qiladi. Amudaryoning chap qirg'og'ida Sho'rqolda mulla Xoraz Xasan biyning safdoshlaridan bo'lgan. U o'z urug'i bilan yashagan. Shu bilan birga Eklik biy o'zining besh xonadondan iborat urug'i bilan va ikki yuz xonadondan iborat Qo'ng'iro't Mang'it urug'i joylashgandi. Chorvachilikka va dehqonchilikka qulay joy edi. Xonning yurushini eshitib tez fursatda qo'rg'on qurib bekindi. O'n birinchi iyulda xonning saralangan sakkiz ming qo'shini qo'rg'onga hujum qiladi. Uzoq davom etmagan jangdan keyin qo'rg'on olinadi. Mulla Xoraz bilan birga Ellik biy qilichlarini bo'yniga sogan holda chiqib xonga taslim bo'lishadi.

Xon ularga shavqat qilib, o'z urug'i bilan qoraqalpoqlarning aris qo'ng'iro't urug'i Xo'jaliga borib joylashishiga ruxsat beradi. Muxammad Raximxonning bu yurishi Qo'ng'iro't qoraqalpoqlarini bo'ysindirish bilan tugaydi[13]. Endi Xiva xoniga faqat Yangidaryo qoraqalpoqlarini bo'ysindirish qolgandi. Shu maqsadda u qoraqalpoq, turkman va o'zbeklardan qo'shin to'plab Ak-yoqish qal'asini mustahkamlaydi. Aydos biy boshchiligidagi qoraqalpoq qo'shinlarini ham safarbar qiladi. Harbiy harakatlar 1810-yilning martida boshlanadi. Bunda turkmanlarning yomud urug'idan har birida ikki yuz lashkardan iborat sardori va qoraqalpoq hamda o'zbeklardan tashkil topgan ko'pgina qo'shin qatnashadi. Ular tinch aholini talashgan va asir olishgan. Lekin bu safar ham ularni bo'ysindirishga muvaffaq bo'la olmaganlar. Yangidaryoda o'sha vaqtda o'n ming xonadon yashagan. Bulardan asosan O'rinboy biy boshchiligida o'n to'rt mang'it urug'i, Eshjoy biy boshchiligidagi xitoy urug'i besh ming xonadonni tashkil etgan edi. Undan tashqari Xasan biy va Yesengeldi biy boshchiligida bes sari urug'i hamda Maman biy boshchiligidagi keneges urug'i, bular ham besh yuzta o'tovdan iborat bo'lgan. Muhammad Raximxonning Yangidaryodagi yurishini eshitgan O'rinboy biy Buxoro amiridan yordam so'raydi, u 1809-yilda Buxoro fuqaroligiga qabul qilingan edi. Lekin u amirdan hech qanday yordam ololmay o'z elchilarini Muhammad Rahimxon huzuriga yuborishga majbur bo'ladi. O'rinboy biyning o'g'li mulla Davlatnazar va Erkon biyning o'g'li Balmuhammad ham elchilar safida bor edilar. Qoraqalpoqlarning qolganlari Mamanbiy, Yesengeldi biy va To'xtapo'lat biylar boshchiligida

qozoqlar tomoniga o'tishga qaror qilishdi. Shu maqsadda ular o'z niyatlarini Qozoq xoni Abdulazizga ma'lum qilish maqsadida o'z elchilarini uning huzuriga yuborishadi. Bundan xabar topgan xon Yangidaryo qoraqalpoqlarni ustiga yurishni tezlashtirdi. 1810-yilning 7 dekabrda Qorauzak qirg'og'iga yetib borganda O'rinboy biy yuborgan elchilar uning huzuri[14]ga kirib Mang'it hamda Xitoy urug'i Xiva xoniga taslim bo'lganligi bildirib Xiva fuqaroligiga qabul qilishini iltimos qiladi. Xon ularga o'z yaqinlaridan mulla Eshim biyni va Muhammad Nazar shayxni qo'shib Yangidaryo qoraqalpoqlari huzuriga yuboradi. Ular qoraqalpolarga xonning shavqat qilinganligi va Xiva fuqaroligiga o'tganligini yetkazishadi. Besh ming o'tovdan iborat aholi O'rinboy biy va Eshjon biy boshchiligida Xorazmga yo'l olishadi[15]. Ular bilan birga oldin Buxoro fuqaroligida bo'lgan Ko'kko'z biy boshchiligida ikki mingta oiladan iborat aholi bor edi.

Xon ularga Qorauzak qirg'og'idan Amudaryogacha bu tomoni Kengantakdan Chilpikgacha bo'lgan xududga joylashishga ruxsat beradi. Mulla Eshim bilan Muhammad Nazar shayxlar Yangidaryo qoraqalpoqlari huzuriga bo'lgan paytda Qozoq xonining elchilari Sanat Kerey boshchiligida Maman biy, Yesengeldi biy va To'xtapo'lat biylar huzurida edi. Ular Sadat Keroydan Qozoq xoni Abdulg'ozii fuqaroligiga o'tish niyatlari borligini hamda yordam yuborishini iltimos qilishadi. O'zlari esa besh ming otovdan iborat aholi bilan Orol dengizi qirg'og'iga ko'chib o'tishadi. U yerda Xiva xonining qadami yetmay o'tishadi. U yerda Xiva xonining qadami yetmaydi deb o'ylashdilar. Lekin Qozoq xoni qoraqalpoqlar uchun Xiva xoni Muhammad Rahimxon bilan munosabatda yomonlashtirishni istamay ularning iltimosi rad qiladi. 1810-yilning dekabri oxirlarida Muhammad Rahimxon uch ming qo'shin bilan qoraqalpolarning qolganlari yashayotgan yerga yetib keldi. Bu yurishda qoraqalpoq biylaridan Aydosbiy, Kaganak biy va O'rinboy biylar bor edi. Ular o'zlarining yo'l boshlovchilik va elchilik xizmatini bajarishdi. Elchilik deganda ular o'sha bo'ysunmagan qoraqalpolarni taslim bo'lishga chaqirdi. Ko'pchilik qoraqalpoqlar baribir qozoqlar tomon o'tishni ma'qul korishdi. Ular Orol dengizi bo'ylab dashti Qipchoqqa yo'l olishdi. Lekin Kenegek biy qoraqalpolarni o'z tomoniga og'dirib olishga erishdi.

Deyarli aholining yarmi bo'ysinmas biylaridan ajralib urug' zavodlari Manglay va Buron boshchiligida ikki mingta besh yuzta xonadondan Xiva tomonga o'tadi[16]. Shunday qilib Yangidaryo qoraqalpolarni ikkita ajralib ketadi. Xiva xoniga dushmanlik ruhida bo'lganlar ham 2500 ta xonadondan qolgan edi. Albatta ular Xiva xonining saralangan uch mingga qo'shiniga qarshi turolmas edilar. Qaytishda Muhammad Rahimxon Yangidaryo qoraqalpoqlarining bo'ysundirishdagi xizmatlari uchun Aydosbiy bilan Aymirza biyni mukofotlaydi. Qolgan O'rinboy biy va Manglay biylariga o'z urug'i ustidan boshchilik qilish hujum beruvchi yorliqlar beradi. Maman biyni esa Xonning ashaddiy dushmani sifatida hokimiyatdan chetlatadi. Mamanbiy bu o'sha 1743-yilda Qoraqalpoq elchilariga bosh bo'lib Peterburgga borgan Maman botir edi. Xon qoraqalpoq urug boshlariga ko'pdan ko'p sovg'a inomlar tortiq qilib, shu yil bilan ularning sodiqligini mustahkamladi. Endi qoraqalpoq xalqidan bajaradi. Shunday qilib Muhammad Rahimxon 1810-yilning dekabrda Yangidaryo qoraqalpoqlarini butunlay o'ziga bo'ysundirishga muvoffiq bo'ladi. Lekin bu bilan Muhammad Rahimxon chetlanib qolmadilar, chunki shu paytga kelib ham Qo'ng'irotda Turamurod so'fi Xiva xoniga bo'ysinmay mustaqil edi.

Bu vaqtga kelib To'ramurod So'fi davlati o'zining itifoqchilari Qo'ng'irotda, Orol va Yangidaryo qoraqalpoqlaridan mahrum bo'lgan bo'lib, judayan zaiflashib qolgan edi. Uning yagona ittifoqchilaridan faqat turkmanlar qolgan edi. Shuni aytib o'tish kerakki, bundan ilgariroq u qoraqalpoqlar orasida uning obro'sini yo'qota boshlagan edi. Sababi u o'z qo'shini harajatini Qorauzak qirg'og'ida yashovchi qoraqalpolarni talab ulardan tortib olgan o'ljalari xisobidan tugalladi. 1811-yilning fevrali boshlarida Muhammad Rahimxon Qo'ng'irotda hududiga hujum qiladi. O'sha yili Qo'ng'irotda olinadi. To'ramurod so'fi o'ldiriladi. Xamma qoraqalpolarni hamda Qo'ng'irotni Xivaga bo'ysundirgandan keyin Muhammad Rahimxon bosib olingan hududlari chegaralarini mustahkamlay boshlaydi. 1811-yildan 1821-yilgacha Yangidaryoda yashovchi ko'pgina qozoq qabilalarini bo'ysindiradi[17]. Shu bilan u o'zining shimoliy sharqdagi chegalarni mustahkamlaydi. Sobiq Qo'ng'irotda hukmronligi 1811-yildan Xiva xonligining shimoliy g'arbidagi mustahkam harbiy istehkomga aylanadi.

Sharqdagi ko'p turkman qabilalari va urug'lari ham Xivaga bo'ysindiriladi. Shimolda esa Orol dengizi bilan chegaralanadi. Janubda esa Xiva xonligining markazi turadi. Shunday qilib qoraqalpoqlar xar tomondan Xiva xonligi xukmronligiga kirgan hududlar bilan ko'rishib olingan edi.

Xulosa:

XYIII asr qoraqalpoqlar tarixida judayam og'ir davr bo'ladi. XYIII asrning 20-yillarida Qo'ng'or bosqini xavfi bu xalqda birorta buyuk davlat bilan yaqin aloqa o'rnatish niyatini paydo qiladi. Ikkinchi tomondan rus chorizm ham o'z ta'sirini O'rta Osiyoga tarqatishga intilish qoraqalpoqlar rus aloqalarining o'rnatilishiga olib keladi. 1720-1722 yillar ichida o'rnatilgan bu aloqa tufayli diplomatik aloqalar savdo aloqalarining mustahkamlashishiga hamda Rus davlati bilan qoraqalpoqlar xonlari o'rtasida asirlar almashishiga olib kelgan. Lekin o'rnatilgan bu aloqa 1723-yilda qozoq va qoraqalpoqlarga Jungorlarning hujumi natijasida buziladi. Jungorlarning bosqinchilik hujumi natijasida vayron qilingan xo'jaliklarini tiklash uchun, bundan tashqari tashqi dushmanlardan o'zlarini himoya qilish uchun, albatta Rossiya bilan aloqa o'rnatish zarur edi. Shuning uchun ham qoraqalpoqlar qozoqlar bilan birgalikda 1730-yil boshlarida Rossiya bilan yaqin aloqa o'rnatishga urinish ko'rishadi. Bu urinishlar natijasida 1731-yilda qozoqlar va qoraqalpoqlar Rossiya fuqaroligiga qabul qilinadi. Bu esa rus hukumatiga va Abdulxayrxonga Kichik juz qozoqlarini Rossiya fuqarolari deb hisoblashga olib keldi. XYIII asrning 40-yillarida qoraqalpoqlarda qozoqlar ta'siridan chiqib to'g'ri Rossiya fuqaroligiga o'tish niyati tug'iladi.

Rus davlatiga ham Sirdaryo qoraqalpoqlari orasida, Orol atrofida va Xiva xonligida o'z ta'sirini kuchaytirish uchun bu juda qo'l kelardi. Shuning uchun ham rus hokimiyati qoraqalpoqlarni 1743-yil Rossiya fuqaroligiga qabul qildi. Qoraqalpoqlarni Rossiya fuqaroligiga qabul qilinishi Abdulxayrxonni qoniqtirmasdi. 1740-yilda jung'orlarning yangi hujumi boshlanadi. 1743-yilda Abdulxayrxon qoraqalpoqlarga hujum qilib ularni tor mol keltiradi. Natijada qoraqalpoqlar butunlay xonavayron bo'ldi. Bu faqat Qozoq feodallarining qoraqalpoqlarga bosqinchilik hujumining boshlanishi edi. Keyingi hujumlari esa ularni Sirdaryo bo'yini tashlab Quvondaryo bilan Yangidaryo oralig'iga ko'chib borishga majbur etdi. Chor hokimiyati qoraqalpoqlarning xonavayron bo'lganligi, ularning xo'jaligi butunlay izdan chiqqanligi sababli ularga nisbatan qiziqishi qolmadi. Hatto qozoq-qoraqalpoq munosabatlarining yaxshilashga birorta chora ko'rmadi. XYIII asrning boshidan va XIX asr oxirigacha qoraqalpoqlarga Xiva xonligiga qarshi kurash olib borishiga to'g'ri keldi. Bu kurash keyinchalik ularni Xiva xonligiga bo'ysundirishga olib keldi. Qoraqalpoqlar Xiva xoniga bo'ysinishiga majbur qilgan sabablardan biri bu XYIII asr va XIX asr boshida sodir bo'lgan siyosiy voqealar edi. Qozoq feodallarining qoraqalpoqlarni Sirdaryo quyidan siqib chiqarishi va ularni to'xtovsiz hujumlari Xiva xoni uchun qoraqalpoqlarni butunlay bo'ysundirishga sharoit yaratib berdi.

Qozoq xonligining va Xiva xonligining to'xtovsiz hujumlari ularning foydalanib kelgan yerlarini hamda sug'orish inshootlarini butunlay izdan chiqarishdi. Mollarni boqadigan yaylovlar kamayib ketdi, ko'p ba'zi bir urug'lar Xorazm tomonga ko'chib borish Xiva xonidan yer sug'arishga majbur bo'ldi. Masalan Muhammad Emin inoq ularning qoldialli urug'i XYIII asrning 70-yillarida Qorauzaq qirg'og'i bo'ylariga joylashtiradi. Urug'lar orasida tarqoqlikdan ularning ichki ziddiyatlaridan, urug'boshilarini o'z tomoniga og'dirib olib o'ziga bo'ysundirishda o'z tomoniga og'dirib olib o'ziga bo'ysundirishga yaxshi foydalana bildi. Butun qoraqalpoq xalqi ustidan hukmronlik qilishni jon dili bilan xoxlovchi biylar Aydos va O'rinboy biylar Xiva xoniga Yangidaryo va Qo'ng'iroq qoraqalpoqlarini Xivaga bo'ysundirish uchun ishonchli suyanchig'i bo'ldi. Shuni aytib o'tishimiz lozimki, Orol bo'yida yashovchi qoraqalpoqlar, qozoq va o'zbeklarning umumiy do'stlik aloqalari Qozoq xonlari va Xiva xonlarining to'xtovsiz bosqinchilik hujumlari ham buza olmadi. Bu xalqlarining do'stlik g'oyasi haqida qo'shiq, dostonlar aytilgan hamda asarlar yozildi. Qoraqalpoqlar shajarasida: Mitan, qo'ng'iroq, xitoy, qipchoq, kenagas, oq qipchoq, olti urug' qoraqalpoq o'zbekdan ajragan ekan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Shalekenov U.X. Kazaxi nizove Amudarii. – Tashkent: Fan, 1966. 182 bet.
2. Kamolov S.K. Karakalpaki v XYIII -XIX vekah. – Tashkent: Fan, 1968. 52 bet.
3. Vyatkin.M. Ocherki po istorii Kazakoy SSR. L.1941 . 158 bet.
4. Ivanov Sh . Ocherki po istorii Karakalpakov.Materiali po istorii Karakalpakov. M-L 1935 71 bet.
5. Munis Ogahi. Firdaus ul-iqbol. Materiali istorii Karakalpakov. – L. 1935 . 182 bet.
6. Tolstov S.P. Xorezmskaya erxeologo etnograficheskaya ekspeditsiya 1946 g. Izv. AN SSSR. t 4 M.1947. 181 bet.
7. Kamalov S.K. Karakalpaki v XYIII-XIX vekax. – Tashkent: Fan, 1968. 66 bet.
8. Kamalov S.K. Karakalpaki v XYIII -XIX vekax. – Tashkent: Fan, 1968. 66 bet
9. Kamalov. O.K Karakalpaki v XYIII –XIX vekax . – Tashkent: Fan, 1968. 63 bet.
10. O'sha joyda
11. Ivanov P.P. Materiali po istorii Karakalpaka. 78 bet
12. Kamalov S.K. Karalalpaki v XYIII -XIX vekax. – Tashkent: Fan, 1968. 70 bet.
13. Materiali po istorii Karakalpakov. 174 bet.
14. Materiali po istorii Karalalpakov.178 bet
15. Kamalov S.K. Karakalpaki v XYIII -XIX vekax. – Tashkent: Fan,1968. 76 bet.
16. Shalekenov U.X. Kazaki nizoviey Amydarii. Tashkent FAN 1966 yil 78 bet.
17. Andrianov. B. V. Arxiv A.L.Kuna. Sovetskoya etnografiya. 1951 . № 4.
18. Andrianov B.V. Etnicheskaya territoriya karakalpakov v severnom Xorezme (XYIII-XIX) – M.: 1958.
19. Andrianov B.V. Izucheniya karakalpokoy irrigatsii v bassejne Janni-Dari v 1956-1957 gg. Material. X. E. vip.4. –M.:1960.
20. Appolova N. G. Prisoidneniye Kazaxstana k Rossii v 30 godax XYIII veka. –Alma – Ata, 1948.
21. Appolova N.G. Ekonomicheskiye i politicheskiye svyazi Kazaxstana s Rossiey v XYIII- nach. XIX v. –M.: 1960.
22. Bakishlov S. K. Vzaimootnosheniya Kazaxstana s xanstvami Sredney Azii v pervoy polovine XIX veka. – M.:1951.
23. Berg L.S, Butakov A.I .- issledovatel Aralskogo moray v kn. «Ocherki po istorii russkix geograficheskix otkritiy». – M-L.: 1949.
24. Birze K. Istorii Karakalpakov XYIII v Krasniy arxiv. 6 (91). 1938.
25. Bregel Yu. E. Xorezmskiye turkmeni v XIX v. –M.: 1961
26. Bregel Yu. E. Arxiv xivinskiy xanov. Navodi AZII I Afriki. – M.: 1966.
27. Vainberg K. Istorii turkmenskiy poseleniy v XIX v Xorezme. Sovetskaya etnografiya. 1954. № 5
28. Vainberg K. Ocherki Sredney Azii. – M.: 1960.
29. Vneshnaya politika Rossii XIX I nachalo XX veka. Seriya pervaya 1801-1915 gg. – M.:1963.
30. Vyatnik M. P. Ocherkii po istirii Kazaxskoy SSSR. –L.:1941.
31. Gulyamov. Ya. G. Istorii orasheniya Xorezma s drevneyshix vremen do nashiy dney. – Tashkent: FAN, 1957.
32. Jalilov A. Qoraqalpoqlar tarixiga oid muhim hujjatlar. – Toshkent: FAN, 1987.
33. Jsanko T. A. Rodopleniya struktura i rasseleniya karakalpakov v nizovyax Amu-Darii v XIX- nach. XX vv . KSI .E. t. IU. –M.: 1949.
34. Jsanko T.A. Karakalpaki Xorezmskogo oazisa. T.X.E. T. I – M.:1952.
35. Jsanko T.A. Karakalpaki (osnovniye probemi etnicheskoy istorii I etnografii). – M.:1964.
36. Jien Tagay uli. –Nukus, 1959.
37. Ivanov P. P. Ocherki istorii karakalpakov. – M-L.:1935.

38. Ivanov P. P. Arxiv xivinskix xanov XIX v. – L.:1940.
39. Iskandarov B. I. Iz istorii buxarskogo Emirata. – M.: 1958.
40. Kamalov S. K. Karakalpaki v XYIII-XIX vekax. –Tashkent: FAN, 1968.
41. Kamalov S. K. Zavoyevaniye karakalpakov xivinskimi xanami v kinse XYIII- nachalo XIX v. – Nukus, 1958.
42. Kosbergenov R. Polojeniyе karakalpakskogo naseleniya v Xivinskom xanstve. T.X.E tom Z.M. 1958.
43. Mambetov K. Qoraqalpoqlar tarixi. – Nukus, 1991.
44. Materiali i issledovaniya po etnografii karakalpakov. – M.: 1958.
45. Materiali po istorii karakalpakov. – M-L.: 1935.
46. Munirov K. Munis Ogahiy va Bayaning tarixiy asarlari. – Toshkent, 1950.
47. Tolstov S.P. Itogi dvadsati let raboti Xorezmskoy arxelogo - etnograficheskoy ekspeditsii. (1937-1956) S.E 1957. № 4Ю
48. Xiva davlat hujjatalri. T. 2. 1960.
49. Shalekenoy U. X. Kazaxi nizobey Amudari. – Tashkent: FAN, 1966.
50. Yuldashev M.Yu. Materiali po istorii karakalpakov ONU. 1965. № 1.



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 4

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000